INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING AHAMIYATI

Abdullayev Sunnat Nurullayevich.
Sarbon universiteti Davlat va jamiyat boshqaruvi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda korrupsiyada qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratinining o'rni, ahamiyati va samaradorligini tahlil qilinadi. Unda davlat organlari ustidan fuqarolar va ommaviy axborot vositalari orqali olib boriladigan nazorat korrupsiya holatlarini oldini olishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Tezisda jamoatchilik nazorati va ularni rivojlantirish bo'yicha takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: Jamoatchilik nazorati, korrupsiyag qarshi kurashish, fuqarolik jamiyati, shaffoflik.

Abstract. This thesis analyzes the role, significance, and effectiveness of public oversight in combating corruption. It substantiates that supervision carried out by citizens and mass media over the activities of state bodies is an important factor in preventing corruption. The thesis also proposes recommendations for further development of public oversight mechanisms.

Keywords: Public oversight, anti-corruption, civil society, transparency.

Аннотация. В данной работе анализируются роль, значение и эффективность общественного контроля в борьбе с коррупцией. Обосновывается, что контроль со стороны граждан и средств массовой информации за деятельностью государственных органов является важным фактором предотвращения коррупционных проявлений. Также в работе предложены рекомендации по развитию механизмов общественного контроля.

Ключевые слова: Общественный контроль, борьба с коррупцией, гражданское общество, прозрачность.

Kirish. Har qanday jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolardan biri korrupsiya hisoblanib, u fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchni pasayishiga, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga va iqtisodiy resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib keladi [1]. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash faqat jazolash choralariga asoslanmasdan, bali uning oldini olishga qaratilgan kompleks mexanizmlarni talab etadi [2]. Shu jihatdan jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurarshishning profilaktik vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U davlat organlari ustidan doimiy monitoringni ta'minlaydi [3].

Asosiy qism. Korrupsiya, avvalo, yopiq boshqaruv tizimi, axborot yetishmasligi hamda nazorat mexanizmlarining sustligi natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-huquqiy hodisa hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, jamoatchilik nazorati samarali ishlashi uchun davlat organlari tomonidan jamoatchilik fikriga nisbatan ochiqlik va tayyorlik mavjud bo'lishi zarur. Agar davlat tuzilmalari jamoatchilik taklif va tanqidlarini inobatga olsa, bu o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi va nazorat mexanizmining natijadorligini yanada oshiradi [4]. Davlat organlari faoliyatining yetarli darajada ochiq bo'lmasligi fuqarolar tomonidan ularni baholash imkoniyatini cheklaydi. Natijada yopiq qarorlar muhiti shakllanadi va korrupsion xatti-harakatlar uchun qulay sharoit paydo bo'ladi. Shu bois korrupsiyaga qarshi kurashishda uning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, uni keltirib chiqarayotgan sabablarni yo'qotish muhim hisoblanadi [5].

Shu sababli, jamoatchilik nazorati korrupsiyaning ildiz omillariga ta'sir qiluvchi samarali mexanizm hisoblanadi. U davlat boshqaruvini ochiqlikka olib chiqadi, yashirin qarorlar ehtimolini kamaytiradi va mansabdor shaxslarning faoliyatini doimiy kuzatuv ostiga qo'yadi. Bundan tashqari, manfaatla to'qnashuvining oldini olish mexanizmlarini joriy etish ham jamoatchilik nazoratining ajralmas qismi hisoblanadi. Mansabdor shaxslarning shaxsiy manfaatlari bilan xizmat vazifalari

o‘rtasidagi ziddiyatlarning ochiqligi ta’minlanganda, korrupsiya xavfi sezilarli darajada kamayadi. Shu jihatdan manfaatlar to‘qnashuvini tatibga solishga qaratilgan huquqiy nomalar jamoatchilik nazoratini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi [5].

Jamoatchilik nazorati korrupsiyani bevosita jazolash orqali emas, balki bosqichma-bosqich ta’sir mexanizmi orqali kamaytiradi. Birinchi navbatda, davlat organlari faoliyatida axborot oshkoraligi ta’minlanadi, bu esa jamoatchilikning xabardorligini oshiradi. Xabardorlikning ortishi nazoratni kuchaytiradi, natijada esa mansabdor shaxslar o‘z faoliyatida ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur bo‘ladi [6]. Bundan tashqari, jamoatchilik nazoratining muhim jihatlaridan biri uning profilaktik xarakterga ega ekanligidir. Ya’ni, ushbu mexanizm korrupsion holatlar sodir bo‘lgandan keyin emas, balki ularning oldini olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jamoatchilik e’tiborining doimiyligi mansabdor shaxslar faoliyatida mas’uliyat hissini kuchaytiradi va noqonuniy harakatlar sodir etilish ehtimolini kamaytiradi [6]. Shu tarzda korrupsiya xavfi tabiiy ravishda kamayadi. Shuningdek, amaliyotda jamoatchilik nazorati turli vositalar orqali amalga oshiriladi.

Xususan, ommaviy axborot vositalari korrupsiya holatlarini yoritish va jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi [7]. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar esa axborotni tezkor tarqatish hamda muhokama qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, jamoatchilik davlat organlari faoliyatini muhokama qilish va baholashda muhim mexanizm vazifasini bajaradi. Fuqarolarning murojaatlar orqali muammolarni ko‘tarishi ham jamoatchilik nazoratining muhim shakllaridan biridir [8]. Shuningdek, jamoatchilik nazorati orqali davlat organlari faoliyatida yuzaga kelayotgan kamchilik va muammolar erta bosqichda aniqlanadi. Bu esa ularni tezkor bartaraf etish imkonini yaratadi va xatolarning chuqurlashib ketishining oldini oladi. Natijada boshqaruv jarayonlari yanada samarali va natijador bo‘lib boradi [8] Shu bilan birgalikda, ochiq ma’lumotlar tizimi davlat faoliyati ustidan mustaqil tahlil o‘tkazish imkonini yaratadi. Biroq jamoatchilik nazorati har doim ham samarali ishlamaydi. Uning natijadorligi bir qator muhim shartlarga bog‘liq. Avvalo, axborotning ochiqligi darajasi yuqori bo‘lishi zarur [9], chunki ochiq ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan sharoitda nazorat mexanizmi sust ishlaydi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, korrupsiyani kamaytirishda faqatgina nazoratni kuchaytirish emas, balki boshqaruv tizimida halollik madaniyatini shakllantirish ham zarur hisoblanadi. Bu esa jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning huquqiy ongin oshirish, ularni davlat boshqaruvida faol ishtirok etishga undash jamoatchilik nazoratining samaradorligini yanada oshiradi [9]. Fuqarolarning faolligi muhim omil hisoblanadi. Passiv jamiyatda jamoatchilik nazorati yetarli darajada shakllanmaydi.

Bundan tashqari, nazorat subyektlari uchun huquqiy kafolatlar yaratilishi ham muhim, chunki himoya mexanizmlari bo‘lmasa, fuqarolar faol ishtirok etishga intilmaydi. Shuningdek, davlat organlarining ochiqlikka tayyorligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega, aks holda rasmiy qarshilik nazorat samaradorligini pasaytiradi. Jamoatchilik nazorati samarali yo‘lga qo‘yilgan holatlarda esa ijobiy natijalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, davlat mablag‘larining maqsadli sarflanishi ta’minlanadi, davlat xizmatlari sifati oshadi hamda fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim va samarali mexanizm bo‘lib, u davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash orqali korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. U nafaqat nazorat vositasi, balki fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytiruvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Shu jihatdan jamoatchilik nazorati demokratik jamiyatning ajralmas elementi sifatida davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, jamoatchilik nazoratining samarali faoliyati davlat organlarining mas’uliyatini oshiradi, qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni kuchaytiradi hamda korrupsion holatlar yuzaga kelishining oldini oladi.

Fuqarolarning faol ishtiroki esa davlat boshqaruvining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ochiq ma’lumotlar tizimlarining keng joriy etilishi jamoatchilik nazoratining imkoniyatlarini yanada kengaytirib, uni

tezkor va samarali mexanizmga aylantirmoqda. Shu bois jamoatchilik nazoratini rivojlantirish uchun davlat organlari faoliyatini yanada ochiq qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligi va faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini ta’minlash hamda jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyektlar uchun zarur huquqiy kafolatlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yakuniy natijada, jamoatchilik nazoratining tizimli rivojlanishi korrupsiyaning kamayishiga, davlat boshqaruvi samaradorligining oshishiga va jamiyatda ijtimoiy adolat hamda qonun ustuvorligining ta’minlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Rose-Ackerman, Susan. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. — Cambridge University Press, 2016.
2. Klitgaard, Robert. Controlling Corruption. — University of California Press, 1988. (Korrupsiya va hisobdorlik bo‘yicha dunyodagi eng asosiy darslik).
3. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2017-yil 3-yanvar).
4. “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2018-yil 12-aprel).
5. "Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2024-yil 5-iyun).
6. Mungiu-Pippidi, Alina. The Quest for Good Governance: How Societies Develop Control of Corruption. — Cambridge University Press, 2015.
7. Transparency International. Global Corruption Report: Education. — Routledge, 2013.
8. G‘ofurov A.S. Korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Akademiya, 2022.
9. Saidov A.X. Jamoatchilik nazorati — demokratik islohotlarning muhim omili. Demokratlashtirish va inson huquqlari jurnali, 2022.